



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

BARQAROR BIRIKMALARNING O‘ZBEK–INGLIZ PARALLEL KORPUSIDAGI LINGVISTIK MAQOMI: TANLASH MEZONLARI VA TASNIFIY CHEGARALAR

Nurullayeva Oydin Nazirjon qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek–ingliz parallel korpusini shakllantirishda “barqaror birikma” tushunchasining lingvistik maqomi, uning ichki turlari va korpusga tanlash mezonlari yoritiladi. Mavjud tadqiqotlarda, xususan, o‘zbek va ingliz tillaridagi frazemalar parallel korpusi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarda asosiy e‘tibor frazemalarga qaratilgan. Biroq tarjima jarayonida qiyinchilik tug‘diruvchi birliklar faqat frazemalar bilan cheklanmaydi, maqol, matal, parafraza, kollokatsiya, terminologik birikma, nutqiy etiket formulasi va diskursiv qo‘liplar ham ikki til o‘rtasida muqobillikni aniqlashda alohida ilmiy ahamiyatga ega. Shu bois maqolada barqaror birikmalarni parallel korpusga kiritish uchun semantik yaxlitlik, struktur barqarorlik, takroriylik, tarjimaviy muqobillik, madaniy yuklama va uslubiy-pragmatik vazifa kabi mezonlar taklif etiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek–ingliz parallel korpusi uchun barqaror birikmalarni tanlashning dastlabki nazariy asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, ingliz tili, parallel korpus, barqaror birikma, frazema, maqol, matal, parafraza, kollokatsiya, tarjima muqobilligi, korpus lingvistikasi.

УСТОЙЧИВЫХ СОЧЕТАНИЙ В УЗБЕКСКО-АНГЛИЙСКОМ ПАРАЛЛЕЛЬНОМ КОРПУСЕ: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ СТАТУС, КРИТЕРИИ ОТБОРА И КЛАССИФИКАЦИОННЫЕ ГРАНИЦЫ

Нуруллаева Ойдин Назиржон кизи

Ташкентский университет прикладных наук, старший преподаватель, PhD

Аннотация

В статье рассматриваются лингвистический статус понятия «устойчивое сочетание», его внутренние разновидности и критерии отбора при формировании узбекско-английского параллельного корпуса. В существующих исследованиях, в частности в работах, посвящённых параллельному корпусу фразем узбекского и английского языков, основное внимание уделяется фраземам. Однако единицы, вызывающие трудности в процессе перевода, не ограничиваются только фраземами: пословицы, поговорки, перифразы, коллокации, терминологические сочетания, формулы речевого этикета и дискурсивные клише также имеют особое научное значение при определении межъязыковой эквивалентности. В связи с этим в статье предлагаются такие критерии включения устойчивых сочетаний в параллельный корпус, как семантическая целостность, структурная устойчивость, воспроизводимость, переводческая эквивалентность, культурная маркированность и стилистико-прагматическая функция. Результаты исследования служат определению первоначальных теоретических основ отбора устойчивых сочетаний для узбекско-английского параллельного корпуса.

Ключевые слова: узбекский язык, английский язык, параллельный корпус, устойчивое сочетание, фразема, пословица, поговорка, перифраза, коллокация, переводческая эквивалентность, корпусная лингвистика.

THE LINGUISTIC STATUS OF STABLE EXPRESSIONS IN THE UZBEK–ENGLISH PARALLEL CORPUS: SELECTION CRITERIA AND CLASSIFICATORY BOUNDARIES

Nurullayeva Oydin Nazirjon qizi

Tashkent University of Applied Sciences, Senior Lecturer, PhD

Abstract

The article examines the linguistic status of the concept of a “stable expression”, its internal types, and the criteria for its selection in the formation of an Uzbek–English parallel corpus. Existing studies, particularly those devoted to the parallel corpus of Uzbek and English phrasemes, mainly focus on phrasemes. However, the units that cause difficulties in the translation process are not limited to phrasemes alone: proverbs, sayings, periphrases, collocations, terminological combinations, speech etiquette formulas, and discourse clichés also have particular scholarly significance in determining equivalence between the two languages. Therefore, the article proposes such criteria for including stable expressions in

a parallel corpus as semantic integrity, structural stability, reproducibility, translational equivalence, cultural markedness, and stylistic-pragmatic function. The findings of the study contribute to establishing the initial theoretical foundations for selecting stable expressions for an Uzbek–English parallel corpus.

Keywords: Uzbek language, English language, parallel corpus, stable expression, phraseme, proverb, saying, periphrasis, collocation, translational equivalence, corpus linguistics.

Zamonaviy tilshunoslikda korpuslar til hodisalarini bevosita real matnlar asosida oʻrganish imkonini beruvchi ishonchli empirik manba sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ikki yoki undan ortiq til materiallarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beruvchi parallel korpuslar tarjimashunoslik, qiyosiy tilshunoslik, lugʻatshunoslik, til oʻqitish va kompyuter lingvistikasi uchun muhim ilmiy-amaliy vosita hisoblanadi. OPUS loyihasi turli tillardagi erkin matnlarni yigʻish, moslashtirish va ularni tilshunoslik hamda tarjima tadqiqotlari uchun ochiq taqdim etish tamoyiliga asoslangan yirik parallel korpuslardan biri sifatida eʼtirof etiladi. J. Tiedemann OPUSni tarjima tadqiqotlari, qiyosiy korpus tadqiqotlari va kompyuter lingvistikasi uchun erkin foydalaniladigan parallel maʼlumotlar majmuasi sifatida tavsiflaydi [1].

Oʻzbek tilshunosligida ham parallel korpuslar, milliy korpus, morfologik tahlil, avtomatik tarjima va frazeologik birliklarni korpusga kiritish masalalari boʻyicha muayyan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Sh. Musurmankulova, G. Begmatova, U. Yodgorov, O. Nurullayevalarning dissertatsion tadqiqotlarida oʻzbek–ingliz va oʻzbek–turk frazemalar parallel korpusining nazariy, lingvistik hamda dasturiy asoslarini ishlab chiqish, frazemalarni avtomatik aniqlash, morfologik-semantik belgilash va ikki tilli bazani shakllantirish vazifalari ilgari surilgan.

Biroq mazkur tadqiqotlarning markazida asosan frazema turadi. Holbuki, tarjima jarayonida murakkablik tugʻdiruvchi barqaror birliklar tizimi faqat frazemalar bilan chegaralanmaydi. Oʻzbek tilidagi **Yetti oʻlchab, bir kes, oq oltin, qaror qabul qilmoq, xush kelibsiz, xulosa qilib aytganda, koʻngli togʻdek koʻtarildi** kabi birliklar turli lingvistik tabiatga ega boʻlsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy belgi mavjud: ular nutqda tayyor holda qoʻllanadi, tarkibiy yoki semantik jihatdan barqarorlashgan boʻladi hamda tarjimada oddiy soʻzma-soʻz koʻchirishga boʻysunmaydi. Shu sababli oʻzbek–ingliz parallel korpusini shakllantirishda dastlabki va eng muhim masalalardan biri korpusga kiritiladigan lingvistik obyektning chegaralarini aniq belgilash hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida barqaror ifodalar masalasi frazeologiya, tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasi kesishgan nuqtada oʻrganiladi. A. P. Cowie tahriri ostida chop etilgan tadqiqotda frazeologiya tayyor, anʼanaviy va takrorlanuvchi birikmalarni oʻrganuvchi soha sifatida talqin qilinadi. Mazkur asar frazeologik birliklar, kollokatsiyalar, iboralar va boshqa barqaror ifodalarni nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etishda muhim manbalardan biri hisoblanadi [2].

Kompyuter lingvistikasi nuqtayi nazaridan bunday birliklar oddiy soʻzlar ketma-ketligi emas, balki alohida qayta ishlanishi zarur boʻlgan murakkab birliklardir. I. A. Sag va hammualliflar koʻp komponentli barqaror ifodalarni kompyuter tilshunosligi uchun “eng murakkab muammolardan biri” sifatida baholaydilar. Chunki bunday birliklarda maʼno koʻpincha tarkibiy qismlarning alohida maʼnolaridan kelib chiqmaydi, struktur oʻzgarish imkoniyati cheklangan boʻladi hamda ularning tarjimai oddiy leksik almashtirish orqali amalga oshmaydi [3].

Maxsus frazeologik korpuslar tajribasi ham bu fikrni tasdiqlaydi. MAGPIE korpusi ingliz tilidagi idiomatik qoʻllanishlarni aniqlash maqsadida yaratilgan boʻlib, 50 mingdan ortiq kontekstni qamrab oladi. Unda oldindan tuzilgan idiomalar roʻyxati, avtomatik ajratish hamda nazoratli belgilash tartibi qoʻllangan [4]. EPIE korpusi esa 717 ta inglizcha idiomaga oid 25 206 ta gapni oʻz ichiga olib, idiomatik va literal qoʻllanishlarni farqlashga xizmat qiladi [5]. ParaDiom korpusi bu borada parallel yondashuvga yanada yaqinroqdir: u 1000 ta slovencha gap va ularning inglizcha tarjimai, shuningdek, 1000 ta inglizcha gap va ularning slovencha tarjimasidan iborat boʻlib, matnlar idiomalar, oʻxshatishlar va maqollar asosida tanlangan [6].

Shu bilan birga, xalqaro tajribada koʻproq idioma yoki feʼlli barqaror ifodalar markazidagi yondashuv ustunlik qiladi. Masalan, PARSEME loyihasida 18 til boʻyicha 5,4 milliondan ortiq soʻz va 62 mingdan ortiq feʼlli barqaror ifoda qamrab olingan boʻlsa-da, asosiy eʼtibor aynan feʼl markazli birliklarga qaratilgan. Demak, oʻzbek–ingliz materiali uchun kengroq obyekt, yaʼni frazemalar bilan bir qatorda maqollar, matallar, parafrazalar, kollokatsiyalar, nutqiy qoliplar va terminologik birikmalarni ham qamrab oluvchi “barqaror birikmalar” tizimini nazariy jihatdan asoslash zarur [7].

Ushbu maqolada **barqaror birikma** atamasi nutqda tayyor holda qoʻllanadigan, tarkibi, maʼnosi yoki vazifasi jihatidan barqarorlashgan, ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topgan til birliklariga nisbatan qoʻllanadi. Bu birliklar toʻliq koʻchma maʼnoli boʻlishi shart emas. Ayrimlari semantik yaxlitligi,

ayrimlari tarkibiy barqarorligi, boshqalari esa pragmatik yoki uslubiy vazifasi bilan ajralib turadi. Masalan, **bosh qotirmoq** frazemasida ma'no ko'chma xarakterga ega; **Yetti o'lchab, bir kes** maqolida hayotiy xulosa mujassam; **oq oltin** parafrasasida paxta obrazli nom bilan ataladi; **qaror qabul qilmoq** kollokatsiyasida esa komponentlar erkin almashinmaydi. Ingliz tilidagi **to rack one's brain, look before you leap, white gold, make a decision** kabi birliklar ham o'zbek tilidagi ushbu qatlamlarga muqobil bo'la oladi.

Shu jihatdan barqaror birikmalarni quyidagi umumiy belgilarga ko'ra ajratish mumkin:

1. **Tayyorlik belgisi** – birlik nutqda har safar yangidan yasalmasdan, mavjud qolip sifatida qo'llanadi.
2. **Tarkibiy barqarorlik** – komponentlar erkin almashtirilmaydi yoki almashtirilganda ma'no buziladi.
3. **Semantik yaxlitlik** – birlik umumiy ma'noni ifodalaydi.
4. **Tarjimaviy murakkablik** – boshqa tilga bevosita so'zma-so'z tarjima qilinganda ma'no yo'qolishi mumkin.
5. **Madaniy yoki uslubiy yuklama** – birlik xalq tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar yoki nutq uslubi bilan bog'liq bo'ladi.

Bu belgilar har bir birlikda bir xil darajada namoyon bo'lmaydi. Masalan, frazemalarda semantik yaxlitlik kuchli bo'lsa, kollokatsiyalarda leksik birikishning barqarorligi ustunlik qiladi. Maqollarda didaktik mazmun, etiket formulalarida esa kommunikativ vazifa yetakchi hisoblanadi.

O'zbek–ingliz parallel korpusiga kiritiladigan birliklarni dastlab quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq.

№	BARQAROR BIRIKMA TURI	O'ZBEKCHA MISOL	INGLIZCHA PARALLEL MUQOBIL	KORPUSGA KIRITISH ASOSI
1	Frazeologik birlik	ko'ngli tog'dek ko'tarildi	his spirits lifted	Ko'chma ma'no va emotsional obraz mavjud
2	Frazeologik birlik	kapalagi uchib ketdi	he was scared stiff	So'zma-so'z tarjimada ma'no yo'qoladi
3	Maqol	Yetti o'lchab, bir kes	Look before you leap	Didaktik xulosa va turg'un gap modeli bor
4	Maqol	Qush uyasida ko'rganini qiladi	Like father, like son	Madaniy-axloqiy umumlashma mavjud
5	Matal	Oyni etak bilan yopib bo'lmas	The truth will out	Obrazli xalqona ifoda
6	Parafraza	oq oltin	white gold / cotton	Obrazli nomlash mavjud
7	Parafraza	zangori ekran	television screen	Madaniy-uslubiy nomlash
8	Kollokatsiya	qaror qabul qilmoq	make a decision	Leksik birikish barqaror
9	Kollokatsiya	e'tibor qaratmoq	pay attention	Komponent tanlovi cheklangan
10	Nutqiy formulasi etiket	xush kelibsiz	welcome	Muloqotda tayyor formula
11	Nutqiy formulasi etiket	omon bo'ling	take care / stay well	Pragmatik vazifa kuchli
12	Diskursiv qolip	xulosa qilib aytganda	in conclusion	Matn tuzilishini boshqaradi
13	Terminologik birikma	parallel korpus	parallel corpus	Sohaviy barqaror nom
14	Terminologik birikma	mashina tarjimasi	machine translation	Ilmiy-texnik tushuncha nomi

Jadvaldan ko'rinadiki, barqaror birikmalarni yagona mezon asosida emas, balki bir nechta mezonlarning o'zaro kesishuvi asosida tanlash zarur. Masalan, **ko'ngli tog'dek ko'tarildi** birligi ko'chma

ma'noliligi sababli korpusga kiritiladi, **qaror qabul qilmoq** esa ko'chma ma'noga ega bo'lmasa-da, leksik va struktur jihatdan barqarorligi sababli tanlanadi. **Xush kelibsiz** birligi esa semantik murakkabligi bilan emas, balki tayyor kommunikativ formula sifatida ahamiyat kasb etadi.

Barqaror birikmalarni o'zbek–ingliz parallel korpusiga kiritishda quyidagi mezonlar asosiy hisoblanadi.

1. Semantik yaxlitlik mezon. Birlik tarkibiy qismlarining alohida ma'nolari umumiy ma'noni to'liq izohlab bera olmasa, u korpusga kiritilishi lozim. Masalan, **og'zi qulog'ida** iborasi “og'iz” va “quloq” so'zlarining bevosita ma'nosi orqali emas, balki “juda xursand” ma'nosi orqali tushuniladi. Ingliz tilida unga **grinning from ear to ear** birligi yaqin muqobil bo'la oladi. Bu ikki birlik obraz jihatidan ham yaqin bo'lib, har ikkalasi yuz ifodasi orqali quvonch holatini bildiradi.

2. Tarjimaviy muqobillik mezon. Agar birlik boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilinganda tabiiy yoki to'g'ri ma'no bermasa, u alohida korpus birligi sifatida tanlanishi kerak. Masalan, **aravani baravar tortmoq** iborasi ingliz tiliga **to pull the cart equally** tarzida so'zma-so'z tarjima qilinsa, asl ma'no yo'qoladi. Kontekstga qarab unga **to share responsibility equally, to pull together** yoki **to work shoulder to shoulder** kabi muqobillar tanlanadi.

3. Madaniy yuklama mezon. Ayrim barqaror birikmalar xalq hayoti, urf-odatlar, diniy-ma'naviy qarashlari yoki milliy obrazlari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, **duo olmoq, oq yo'l, non sindirmoq, ko'ngil olmoq** kabi birliklar ingliz tilida har doim ham bitta tayyor muqobilga ega emas. Bunday hollarda korpus faqat tarjimoni emas, balki madaniy moslikni ham aks ettirishi kerak: **oq yo'l** – *safe journey / good luck on your way*; **ko'ngil olmoq** – *to comfort someone / to win someone's heart*; **duo olmoq** – *to receive someone's blessing*.

4. Struktur barqarorlik mezon. Tarkibi erkin o'zgartirilmagan yoki komponentlari muayyan tartibda qo'llanadigan birliklar barqaror birikma sifatida qaraladi. Masalan, o'zbek tilida **xulosa chiqarmoq, qaror qabul qilmoq, ta'sir ko'rsatmoq** birliklarida fe'l komponenti tasodifiy tanlanmaydi. Ingliz tilida ham **make a decision, draw a conclusion, have an effect** birikmalari xuddi shunday struktur barqarorlikka ega.

5. Pragmatik vazifa mezon. Nutqiy etiket formulalari va diskursiv qoliplar semantik jihatdan murakkab bo'lmasligi mumkin, biroq ular muloqot jarayonida tayyor shakl sifatida qo'llanadi. Masalan, **marhamat qiling, uzr so'rayman, hurmat bilan, yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilib aytganda** kabi birliklar tarjimada uslub va vaziyatga mos ravishda tanlanishi kerak: *please, I apologize, sincerely, based on the above, in conclusion*.

Barqaror birikmalar:

- frazeologik birliklar: bosh qotirmoq – *to rack one's brain*
- paremiologik birliklar: Yetti o'lchab, bir kes – *Look before you leap*
- perifrastik birliklar: oq oltin – *cotton / white gold*
- kollokatsion birliklar: qaror qabul qilmoq – *make a decision*
- terminologik birliklar: til korpusi – *language corpus*
- etiket formulalari: xush kelibsiz – *welcome*
- diskursiv qoliplar: xulosa qilib aytganda – *in conclusion*

Bu chizma shuni ko'rsatadiki, “barqaror birikma” atamasi frazemadan kengroq maydonni qamrab oladi. Frazema mazkur tizimning markaziy, lekin yagona qatlami emas. Shu sababli o'zbek–ingliz parallel korpusining lingvistik bazasi faqat frazeologik lug'atlar bilan cheklanmasligi, balki maqollar to'plami, terminologik lug'atlar, badiiy tarjimalar, publitsistik matnlar, ilmiy matnlar va rasmiy nutq namunalari asosida boyitilishi zarur.

O'zbek–ingliz parallel korpusi uchun barqaror birikmalarni tanlashda ikki xavf mavjud. Birinchi xavf – obyektning haddan tashqari toraytirish. Bunda faqat ko'chma ma'noli iboralar olinadi va maqol, kollokatsiya, nutqiy qolip, terminologik birikma kabi tarjimada muhim bo'lgan qatlamlar chetda qoladi. Ikkinchi xavf – obyektning haddan tashqari kengaytirish. Bunda har qanday ikki so'zli birikma barqaror birikma sifatida qabul qilinib, korpusning ilmiy aniqligi pasayadi.

Shu bois muvozanatli yondashuv zarur: birlik korpusga faqat kamida ikki asosiy mezonga javob bersagina kiritilishi kerak. Masalan, bosh qotirmoq semantik yaxlitlik va tarjimaviy murakkablik mezonlariga javob beradi. Qaror qabul qilmoq semantik ko'chma ma'noga ega bo'lmasa-da, tarkibiy barqarorlik va tarjimaviy muqobillik mezonlariga javob beradi. Yetti o'lchab, bir kes esa didaktik mazmun, turg'un gap modeli va madaniy umumlashma mezonlariga mos keladi.

Jahon tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, maxsus frazeologik korpuslar, odatda, oldindan tanlangan birliklar ro'yxatiga tayanadi. MAGPIE oldindan tuzilgan idiomalar ro'yxati asosida korpusdan misollar

yigʻgan, EPIE idiomatik va literal qoʻllanishlarni farqlagan, ParaDiom esa idiomalar, oʻxshatishlar va maqollarni parallel segmentlarda koʻrsatgan [7]. Oʻzbek–ingliz barqaror birikmalar korpusi ham shu tajribadan kelib chiqib, dastlab tanlash mezonlarini ishlab chiqishi, keyinchalik esa alohida birlik turlari boʻyicha bazani kengaytirishi lozim.

Oʻzbek–ingliz parallel korpusini yaratishda barqaror birikmalarling lingvistik maqomini belgilash alohida nazariy bosqich sifatida qaralishi lozim. Chunki korpusga qaysi birliklar kiritilishi aniqlanmasdan turib, keyingi texnik yoki amaliy bosqichlarga oʻtish ilmiy izchillikni susaytiradi.

Maqolada barqaror birikmalar frazema doirasidan kengroq hodisa sifatida talqin qilindi. Ularning tarkibiga frazeologik birliklar, maqollar, matallar, parafrazalar, kollokatsiyalar, terminologik birikmalar, nutqiy etiket formulalari va diskursiv qoliqlar kiritilishi asoslandi. Tahlil asosida semantik yaxlitlik, tarkibiy barqarorlik, tarjimaviy muqobillik, madaniy yuklama, pragmatik vazifa va takroriy qoʻllanish barqaror birikmalarni korpusga tanlashning asosiy mezonlari sifatida taklif etildi.

Maqolaning asosiy ilmiy xulosasi shundan iboratki, oʻzbek–ingliz parallel korpusi uchun barqaror birikmalarni faqat frazemalar bilan cheklash yetarli emas. Tarjima jarayonida barqarorlik va muqobillik muammosi frazemalar bilan bir qatorda maqol, matal, parafraza, kollokatsiya, nutqiy qolip va terminologik birikmalarda ham namoyon boʻladi. Shu sababli barqaror birikmalarni tanlash mezonlarini ishlab chiqish kelgusida ikki tilli lugʻatlar, tarjima bazalari, korpus qidiruv tizimlari va mashina tarjimasini takomillashtirish uchun muhim nazariy poydevor boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Tiedemann J. Parallel Data, Tools and Interfaces in OPUS // Proceedings of the Eighth International Conference on Language Resources and Evaluation. – Istanbul: European Language Resources Association, 2012. – P. 2214–2218.
2. Cowie A.P. (Ed.). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 272 p.
3. Sag I.A., Baldwin T., Bond F., Copestake A., Flickinger D. Multiword Expressions: A Pain in the Neck for NLP // Lecture Notes in Computer Science. – Berlin: Springer, 2002.
4. Haagsma H., Bos J., Nissim M. MAGPIE: A Large Corpus of Potentially Idiomatic Expressions // Proceedings of the 12th Language Resources and Evaluation Conference. – Marseille: European Language Resources Association, 2020. – P. 279–287.
5. Saxena P., Paul S. EPIE Dataset: A Corpus for Possible Idiomatic Expressions. – arXiv:2006.09479. – 2020.
6. Donaj G., Antloga Š. ParaDiom: A Parallel Corpus of Idiomatic Texts. – CLARIN.SI Repository, 2022.
7. Savary A. et al. PARSEME Multilingual Corpus of Verbal Multiword Expressions // Multiword Expressions at Length and in Depth. – Berlin: Language Science Press, 2018. – P. 87–147.
8. Elov B.B. Uzbek-English Parallel Corpus Algorithm and Alignment. – Toshkent, 2023.